

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATI RIVOJI

Mushtariy Shoxnazarovna Xudoyberdiyeva

Ilmiy rahbar: Mukammalxon Kurbanova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillarida musiqa madaniyatining ildizlari va rivoji, mustaqillik yillarida musiqa san’atini tubdan rivojlantirish va yuksaltirish uchun olib borilgan say-harakatlar, O‘zbek san’atida xonanda hamda sozandalarning ayni shu soha uchun qo‘shgan hissalar va yutug‘lari, mahalliy uslublar, televideniya hamda radio namoyishlarining san’at sohasi uchun ta’siri, tashkil etilgan ko‘plab tanlov va festivallar, bugungi kunda musiqa madaniyatimizning rivoji va yorqin kelajagi uchun ko‘rilayotgan ishlar va ularni yuksaltirish uchun qabul qilinayotgan qarorlar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: bastakorlik, kompozitor, festival, ashula, suvora, mumtoz musiqa, Grand-Pri, Shashmaqom, opera, vokal, orden, teleopera, maqom

DEVELOPMENT OF UZBEK MUSICAL ART IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Mushtari Shokhnazarovna Khudoyberdiyeva

Scientific supervisor: Mukammalkhan Kurbanova

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: the roots and development of music culture in the first years of independence in Uzbekistan, the efforts made to radically develop and improve the art of music in the years of independence, the contributions and achievements of singers and musicians in the field of Uzbek art. lars, local styles, the impact of television and radio shows on the arts, the many competitions and festivals organized, the work being done today for the development and bright future of our music culture and the decisions being taken to promote it. z goes.

Keywords: composition, composer, festival, song, suvora, classical music, Grand-Pri, Shashmaqom, opera, vocal, order, teleopera, status

Musiqa sohasining azaliy qadriyatlaridan zamonaviylik me’zonlarigacha bo‘lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglashimiz mumkin. Buning esa ko‘lami judayam keng, ularni tasavvur qila olish ham mushkul ish aslida. Sababini, har bir xalqning o‘z ma’naviyati, ma’rifati, estetikasi bo‘lib, hayot degan ulkan jarayonda milliy hamda ma’naviy omillar bilan sug‘orilib

kelingan. Buning negizida esa, ikki ulkan tafakkur yoʻnalishlari, yaʼni xalq ommaviy musiqasi hamda tafakkurining individual ijodiy munosabatlarining mahsuli yuksak oʻrin tutadi.

“Oʻzbek xalq musiqa sanʼati oʻzining milliy jarayonlarida oʻziga xos va mos boʻlgan mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega sanaladi. XX asrga kelib, bu ijtimoiy hayot soʻqmoqlarida va musiqa madaniyatimizda yangi yoʻnalish joriy etila boshladi. Bu ana shu gʻarb musiqa madaniyatining negizida xalq musiqa madaniyatining rivoji uchun muhim turki boʻldi hamda amaliyotda oʻz isbotini topdi va topib kelmoqda.” [1.56-bet] Milliy musiqa madaniyatimiz haqida gap ketar ekan, avvalo uning negizi, yuzaga kelishi hamda rivojlanish bosqichlari haqida soʻz yuritishimiz mumkin.

Oʻzbekiston Mustaqillikka erishgach, milliy tiklanishimiz, yuksaltirish, barcha sohalarni tubdan rivojlantirish hamda koʻplab sohalarni keng qamrovli tarzda yuksaltirish borasida koʻplab amaliy ishlar olib borilgan. Shu oʻrinda mustaqillikning ilk yillarida boshqa koʻplab sohalarda qatori musiqa madaniyatida juda katta oʻzgarishlar amalga oʻz isbotini topdi.

Qariyb XV asrlik tarixi, muayyan uslubiy tamoyillari, shaklan va mazmunan beqiyos anʼanalarga ega, milliy tafakkurimizga asos zaminini tashkil etuvchi - oʻzbek bastakorlik ijodiyoti Shoʻro davrida bir chekkaga surilib qoʻyilgan edi. Istiqloq sharofati bilan esa, uzoq va yaqin oʻtmish bastakorlari tomonidan yaratilgan hayratomuz sadolar yana takroran xalqimiz musiqiy tafakkuriga qaytib kelmoqda. Mustaqillikning ilk yillariga kelib esa, yurtimizda musiqa sanʼatini keng koʻlamda rivojlantirish va ijtimoiy-musiqiy madaniyatni yanada yuksaltirish uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlar yaratildi, yosh avlodga milliy va jahon mumtoz musiqasi asosida taʼlim-tarbiya berish yoʻlida muhim ishlar amalga oshirildi.

Tub ildizlari teran, qadimiy va yangi zamon anʼalarini oʻzida mujassam etgan hozirgi davr oʻzbek musiqasi keng koʻlamda rivojlanayotganligini guvohi boʻlishimiz mumkin. Bunda xalq musiqa ijodi va xalq havaskorligi, mumtoz musiqiy meros hamda bastakorlik, kompozitorlik ijodiyoti va musiqiy estrada kabi qator qatlamlar namoyon boʻladi. Har bir oʻziga xos qonuniyatlar, xususiyatlar va anʼalariga ega bu jabhalarda davr talabi va milliy qadriyatlar kesimida eʼtiborli tamoyillar kuzatilmoqda. Mustaqillik yillarida Respublikamizda yangidan barpo etilgan 283 ta (jami 331 ta) Bolalar musiqa va sanʼat maktablari, musiqaga ixtisoslashtirilgan 4ta akademik litsey, 13ta Sanʼat kolleji, shuningdek, azim Toshkent shahrining markazida koʻrkam bino boʻlib qad koʻtargan Oʻzbekiston davlat Konservatoriyasi faoliyat koʻrsatmoqda. Tashkil etilgan muassasalardagi zarur shart-sharoitlar aynan yoshlarning yorqin kelajagi va istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etadi.[1.247-bet].

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xalqona va yuksak mumtoz kasbiy musiqa namunalarini asrab-avaylash, yangi zamon ruhi bilan ravnaq toptirish hamda nafaqat respublika bo‘ylab, balki butun jahon sahnalari musiqiy merosimiz hamda yangidan-yangi musiqa namunalarni namoyon etish imkoniyatlari bugungi keng ko‘lamda yuzaga kelganligini faxr bilan aytishimiz mumkin. Bularga misol tariqasida mamlakatimizda ko‘plab tashkil etilgan xalqaro hamda respublika ko‘rik tanlovlari hamda festivallarni keltirishimiz mumkin.

O‘zbek musiqasi rivojida san‘at sohalari va turli musiqiy janrlar orqali qo‘shilgan hissalar beqiyos. Jumladan: cholg‘u ijrochiligi, estrada honandaligi, musiqashunoslik, kompozitor hamda bastakorlik, musiqali drama, ballet san‘ati, vokal san‘ati, kino musiqasi, simfonik musiqa musqali teatr kabi qator janrlar orqali yuksalgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida kompozitorlik ijodiyoti hamda ijrochilik san‘ati keskin rivoj topdi. Yirik sahnaviy asarlar - opera, balet va musiqali drama hamda komediya janrlari, vokal - simfonik musiqa (romans, syuita, kantata va oratoriya) kamer cholg‘u musiqalari janrlarida skripka, violonchel, truba, fleyta, maxsus ovoz uchun konsertlar shular jumlasidandir.[2.7-bet].

O‘zbek musiqa san‘atining yana bir e‘tiborga molik taraflaridan biri bu - ommaviy va zamonaviy janr sanalgan estrada san‘atidir. Zamonaviy ommaviy janrlarga bo‘lgan ushbu san‘at janri qisqa vaqtlar ichida juda tez sur‘atda rivojlandi. Bu janrga professional darajadagi yondashuv ushbu soha yutug‘ining asosiy garovi bo‘lib hizmat qildi. Shu bois bugungi kunda ushbu janr namunalari, o‘zbek kompozitorlari ijodida, estrada musiqasining purma‘no namunalarini shakllanib amaliyotga muhim o‘ringa egallashiga turki bo‘lgan.

Bundan tashqari yangi davrga kelib o‘zbek-tojik xalqlari mumtoz musiqasi “Shashmaqom” jahon sahnalari uzra dadil va shonli odimlay boshlaganini ta’kidlash joizdir. Bu borada 2003-yil YUNESKO xalqaro tashkiloti “Shashmaqom”ni jahon nomoddiy madaniy merosining durdonasi deya e‘lon qilganligi, 2008-yilda esa nomoddiy madaniy meros bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasining 3-sesssiyasida insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yhatiga kiritilganligi hamda uning an‘analarini yangi shart-sharoitlarda saqlash va targ‘ib qilishga oid maxsus dasturini qabul qilganligi bizni behad quvontirgan. [3.76-bet].

Ma‘lumot o‘rnida yana shuni aytish mumkinki, o‘zbek milliy cholg‘ulari va ularda ijrochilik san‘atining keng ko‘lamli targ‘iboti hamda ommlashuvi va dunyo sahnalarida tan olinishi uchun o‘zining beqiyos hissalasi qo‘shgan shaxslar Turg‘un Alimatov, uning o‘g‘li Alisher Alimatov hamda ularning sulolasi, Abror Zufarov kabilar buning yorqin dalilidir.

1991-yilda O‘zbekistonda ilk bor tashkil etilgan “So‘g‘diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer “Buyuk Ipak yo‘li” o‘laroq qadimda yuzaga kelgan Sharq va G‘arb

musiqa madaniyatlari aro yuzaga kelgan o'zaro uzviy hamkorlik an'analarini yangi davrda davom ettirish yuksak maqsadi bilan o'z faoliyatlarini boshlashgan.[3.249-bet]. Bu kabi say harakatlar natijasida ushbu orkestr va uning rahbari hamda drijyori Feruza Abdurahimova bilan birgalikda o'zbek milliy va an'anaviy kuylarini o'zimizning milliy cholg'ularimizda dunyo sahnalariga olib chiqishdi va o'z muhlislariga havola etishdi. Ular Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Ispaniya, Misr, Turkiya va qator davlatlarda O'zbek kompozitorlaridan F.Alimov, M.Bafojev, H.Rahimov, N.Norxo'jayev, D.Saydaminova va A.Mansurov kabi ijodkorlarimizning sermahsul ijod namunalari asosida dunyo sahnalarini zabt etishmoqda.

Ayni mana shunday rivojlanayotgan davrda yana bir milliy musiqamizning ustunlaridan sanalgan mahalliy uslublarimizga ham e'tibor qaratildi. O'zbek xalqining musiqiy merosida asosan, 4-ta mahalliy uslub mavjud bo'lib ular:

1. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi
2. Buxoro-Samarqand musiqa uslubi
3. Xorazm musiqa uslubi
4. Farg'ona-Toshkent musiqa uslublari

Ushbu uslublar ham o'z o'rnida har bir hududni milliylikini, urf-odatlarini, qadqiyatlarini, milliy an'analarini va shu bilan bir qatorda uning tarixi va kelajagini ham mujassamlashtiradi. Bugungi globallashtirilgan bir davrda yashar ekanmiz ayni mana shu milliy mahalliy uslublarimizda aks ettirilgan ijrochilik san'atimiz muhim ahamiyat kabs etadi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi jadal rivojlanayotgan zamonda, televideniya barchamizning bir vaqtlar orzularimizda yashagan "oynai-jahon" bugungi kunda butun dunyo odamlarini yuzma-yuz ushrashtiradigan, xalqaro voqealarni mamlakatimizdagi ro'y berayotgan bir-biridan ajoyib o'zgarishlarni ko'z o'ngimizda jonlantiradigan, kishilarga ma'naviy ozuqa, estetik zavq bag'ishlaydigan muhim vosita, hayotimizning, ishimizning yutug'larimiz hamda kamchiliklarimizning ko'zguisiga aylanib ulgurgan.

San'atning bugungi kunda tarbiyaviy vosita sifati barkamol avlodni tarbiyalash va shaxs ma'naviyatini shakllantirishdek murakkab vazifalarni bajarishi to'g'risidagi ma'lumotlar barchaga ma'lum. San'at inson ongi va tafakkuriga ta'sir etuvchi asosiy kuch sifatida insonni barkamollikka va ruhiyatini tetiklikka undaydi, ushbu jarayonni o'rganish natijasida falsafa va boshqa qator fanlar tadqiqotlarida ma'lum natijalarga erishishmoqda. Hozirgi san'at sohasi bilan bog'liq qonunlar, qarorlar, yangilik hamda o'zgarishlar aynan televideniya, radio eshittiruvlari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritiladi, shunday ekan bugungi ommalashgan, virtual olam chambarchas bog'liq bo'lib qolgan bir davrda ayni shu soha vakillari ushbu tarmog'lar bilan birgalikda va hamnafas yashashlari talab etilmoqda.[4.2-bet].

Shu o'rinda aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlanganidek ijtimoiy rivojlanayotgan bu davrda san'at sohasi bilan ko'plab tashkiliy ishlar, yangiliklar, turli ko'rik tanlovlar, festivallar ham aynan shu sohaning yorqin kelajagi va rivojini ta'minlaydi. Bu borda mustaqillik yillaridan boshlab tashkil etilgan qator tanlov, festivallarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Zamonaviy ijod uchun asosiy zamin vazifasini o'tagan mustaqillikning ilk yillarida tashkil etilgan "Sharq Taronalari", "Ilhom - XX", "Simfonik musiqa" kabi tanlov va festivallar har taraflama ijobiy ta'siriga ega sanaladi.

Shuningdek, xalqaro miqyosida o'tkazilayotgan ko'rik tanlov va festivallar yosh estrada honandalarining o'z ijro imkoniyatlarini namoyon qilish va jahon estrada san'atining turli yo'nalishlarida tajriba almashish repertuarlarini boyitishida zamin yaratadi.

Xalqaro ko'rik tanlovlar ishtirokchi-xonandaga o'z ijodi va bu sohada erishayotgan yutug'lari nafaqat o'zining balki u orqali xalqi va millatining o'ziga xos ma'naviyati hamda san'atini keng jamoatchilikka va jahon sahnalarida ko'rsatib bera olishi uchun imkoniyat yaratadi. Uzluksiz o'tkazilayotgan akademik konsertlar, turli xil ko'rik-tanlovlarda qatnashishlari o'quvchilar va talabalarni vokal malakalarini oshirishga yordam beradi. Romans yoki musiqali drama, operalardan ariyalarni ijro etish uslublarini o'rganish, uzluksiz tarzda ma'lum ketma-ketlikda, oddiydan to murakkabga qadar borishini ta'minlash zarur. Estrada xonandaligi yo'nalishidagi qo'shiqlar janrida romanslar turli mavzu, xarakter va tuzilishdagi vokal kamer asar bo'lishi mumkin. Bu janr jahon va o'zbek kompozitorlari ijodida rivojlanib kelmoqda.

Ko'rik-tanlov hamda festivallarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida, vokal san'ati, o'quvchi talabalarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgan davrdan boshlab yaratilayotgan san'at asarlari orasida aynan, Vatan, Istiqlol, Ozodlik, Millat, kabilar haqidagi qo'shiqlar keng o'rin olgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 25-avgustdagi "Yosh iste'dodlar uchun "Nihol" mukofotini ta'sis etish to'g'risida"gi 334-sonli qarori nafaqat estrada qo'shiqchiligi sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar, balki umuman musiqa san'ati ijrochiligi bilan shug'ullanuvchi guruhlar va yakka shaxslar ijodiy faoliyati uchun keng yo'l ochib berdi hamda mazkur soha vakillari oldiga tegishli vazifalar qo'yilgan.

Ayni davrda musiqa san'atida milliylik, xalqchilik va taraqqiyotparvarlik yo'lidan borish, musiqiy ijodiyot, tegishli ilmiy-tadqiqot, targ'ibot va tashviqot muassasalari hamda tashkilotlarning maqsad hamda vazifalarini qayta ko'rib chiqish, ularning tuzilmalarini yangilash, maxsus o'quv yurtlarini to'g'ri sohalarga yo'naltirish borasida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda.

Musiqa sohasida ta'lim olayotgan har bir sozanda, xonanda va ijodkorlarga o'z musiqa an'analarini bilib olishlari va kelgusida avlodlarga xos an'analarning munosib davomchilari bo'lishida musiqa bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalari as qotadi.

Zero, musiqa - bu hayot manbai, ijod manbai, ruh ozug'i hamda millat ko'zgidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek musiqasi tarixi A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova Toshkent 2018.
2. Musiqa tarixi Ibrohimov.O.A Xudoyev.G'.M Toshkent 2018.
3. Yangi O'zbekiston Strategiyasi Sh.M.Mirziyoyev 2021.
4. Musiqa lug'ati I.A.Akbarov Toshkent 1987.
5. Musiqa va tarbiya Alijon Xasanov Toshkent 1993.
6. Cholg'ushunoslik O'.Toshmatov, X.Beknazarov Toshkent 2018.